



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSİYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020–2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafuz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloyevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI VAHOLASH VA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI PROGNOZLASH	218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	233
Komilova Guli Bagandik qizi	
THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES.....	238
Eshboyev Mirjalol Baxrom o'g'li	
Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi	
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ.....	250
Турсунов Гафур Таирович	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH.....	259
Ibragimov Nodirbek Bahodir o'g'li	
ДЕМОКРАТИК TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI	266
Malika Sharipova Maxmudjon qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	273
Ibadov Shoxrux Axmatilloevich	
EKONOMETRIK MODELASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI.....	277
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O'RNI.....	283
Musayeva Shoira Azimovna	
O'ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	289
Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna	



BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	296
Matkarimova Ayman Jengisbaevna	
O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI	303
Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi	
BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	309
Mustafayeva Sevara Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	314
Qodirova Farangiz Komilovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS' HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN.....	320
Sardor Kuvandikov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI	329
Madenova Elmira Nizamatdinovna	
BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	334
Shoyev Davronbek Axmadjonovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH.....	340
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	349
Jannazarova Gauzar Kaipnazarovna	
Raxmatova Sevinch Sobir qizi	
O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARINING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA.....	353
Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li	
Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	358
Pyotr Kim	
TOSHKENT VILOYATI BO'STONLIQ TUMANIDA TURISTIK ZONALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIYIQTISODIY AHAMIYATI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA).....	364
Tolibboyev Zafarbek Axror o'g'li	
TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	372
Qarshiboyev Lochinbek Xusan o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	379
Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich	
QASHQADARYODA NODAVLAT UNIVERSITETLARINING TASHKILIY RIVOJLANISHI: TALABALAR VA XODIMLAR POTENSIALINI TARKIBIY VA DEMOGRAFIK TAHLIL.....	382
Rahimov Sardor Uralovich	



O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI.....	388
Kudratov Muhammad Rustamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK MA'LUMOTLARNI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI.....	393
Umarov Abbos Nuriddin o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ, СТРУКТУРНАЯ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ И СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ.....	400
Муниса Турдибаева	
TURIZM SOHASIDA SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	410
Yuldosheva Laylo Isroilovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	416
O'ramov Jahongir Jo'rayevich	



MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Oramov Jahongir Jo'rayevich

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: jaxongiroramov390@gmail.com

ORCID iD: 0009-0001-8632-1280

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, investitsion faollikni oshirish hamda sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi sanoatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va Qashqadaryo viloyati misolida sanoat tarmoqlarining hududiy rivojlanish holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mintaqa, sanoat, sanoat tarmoqlari, investitsiya, diversifikatsiya, hududiy rivojlanish, innovatsiya, raqobat.

Abstract. This article examines the priority directions for the development of industrial sectors in ensuring regional economic growth, as well as the economic significance of increasing investment activity and diversifying industrial production. Based on statistical data, the study analyzes current trends in the industrial development of the Republic of Uzbekistan and assesses the territorial development of industrial sectors using the Kashkadarya region as a case study.

Keywords: region, industry, industrial sectors, investment, diversification, regional development, innovation, competitiveness.

Аннотация. В данной статье исследованы приоритетные направления развития отраслей промышленности в обеспечении регионального экономического роста, а также экономическое значение повышения инвестиционной активности и диверсификации промышленного производства. На основе статистических данных проанализированы современные тенденции развития промышленности Республики Узбекистан и состояние территориального развития промышленных отраслей на примере Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: регион, промышленность, отрасли промышленности, инвестиции, диверсификация, региональное развитие, инновации, конкурентоспособность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan tarkibiy transformatsiyalar, global qiymat zanjirlarining qayta shakllanishi, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda xalqaro raqobatning kuchayishi mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalasini strategik ustuvor yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda. Mazkur sharoitda mintaqaviy iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish, hududlarning sanoat salohiyatini yuksaltirish, investitsion faollikni rag'batlantirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli sanoat tarmoqlarini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, balki hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash va aholi bandligini ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro prognozlarga ko'ra, 2026-yilda jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati 2,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich avvalgi prognozlarga nisbatan 0,2 foiz bandga past bo'lib, pandemiyagacha kuzatilgan iqtisodiy o'sish sur'atlariga nisbatan pastroq darajada shakllanmoqda. Mazkur tendensiya jahon iqtisodiyotida iqtisodiy faollik sur'atlarining nisbatan sekinlashayotgani hamda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi [1].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya etish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda hududlar iqtisodiyotini kompleks rivojlantirishga



qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi sanoat zonalarini tashkil etish, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Mazkur islohotlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, ishlab chiqarishning hududiy mutanosibligini ta'minlash hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida sanoat ishlab chiqarishi iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida qaraladi. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi investitsiya faolligining ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mehnat unumdorligining oshishi, innovatsion faoliyatning jadallashuvi hamda eksport hajmining kengayishi orqali hududlarning makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. Ayniqsa, ishlab chiqarish tarkibining diversifikatsiya qilinishi iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni yumshatish, iqtisodiyotning tashqi omillarga nisbatan barqarorligini oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zarur institutsional asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslar, mineral-xomashyo bazasi, energetika, qurilish materiallari, to'qimachilik, kimyo va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud iqtisodiy salohiyatdan to'liq va samarali foydalanish, sanoat tarmoqlarining tarkibiy muvozanatini ta'minlash, investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda hududiy sanoat siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish bilan bog'liq masalalar o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida, xususan, Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining rivojlanish holati, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yo'nalishlari hamda ularning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida kompleks tahlil qilingan bo'lib, tadqiqot natijalari hududlarda sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarining rivojlanishi borasida ko'plab olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, A. N. Raximovning fikricha, "raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalar sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi" [2], deb hisoblaydi. F. K. Xodjayeva [3] sanoat tarmoqlarini optimal rivojlantirishda Wassily Leontiefning [4] tarmoqlararo balans nazariyasi va George B. Dantzingning [5] chiziqli dasturlash va simpleks algoritmini birgalikda qo'llab, milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi resurs oqimlarini aniq miqdoriy shaklda tavsiflash va optimal taqsimot yechimini topish imkonini borligini ta'kidlaydi.

Bir guruh rossiyalik olimlar sanoat siyosatini rivojlantirishning muammolari va istiqbollari, shuningdek, innovatsion hamda investitsion mexanizmlarni joriy etish asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlash omillarini tahlil qilib, tadqiqotlarida "sanoat siyosati" tushunchasiga urg'u berishadi. "Sanoat siyosati — bu investitsiya muhitini yaxshilash, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, investitsiyalar oqimini ko'paytirish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, yalpi ichki mahsulot (YaIM) va yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmini oshirishga qaratilgan, davlat hamda mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir" [6], deb ta'riflashadi.

Turkiyalik olimlar B. Katana va D. Gürsular o'z tadqiqotlarida Turkiyada 1960-yillardan boshlab amalga oshirilgan rivojlanish rejalari doirasida tashkil etilgan sanoat hududlarining mintaqaviy rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilib, mintaqaviy rejalashtirishga nisbatan tizimli yondashuv hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish hamda strategik investitsiyalar va rejalashtirish orqali sanoatning barqaror rivojlanishini rag'batlantirish zarurligini asoslaydilar. Ular sanoat hududlarini samarali rivojlantirish investitsiyalarini hududlar kesimida oqilona taqsimlash, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish va hududiy iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda takomillashtirish orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qilishini qayd etadilar [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik axborotnomalar va yetakchi olimlarning tadqiqot ishlari tahlil qilindi hamda olingan natijalar umumlashtirildi. Shuningdek, kuzatish, guruhlash, monografik tahlil, taqqoslash va tizimli yondashuv kabi ilmiy-uslubiy usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakat sanoatining tarmoq kesimidagi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hududlar iqtisodiyotining o'sish omillarini aniqlash hamda ularning istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini baholash imkonini beradi.

Sanoat siyosatini amalga oshirish departamenti taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 101,1 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 106,8 foiz o'sish qayd etildi. Mazkur natija sanoat ishlab chiqarishining milliy iqtisodiyotdagi yetakchi o'rini saqlab qolayotganligini hamda sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va investitsiya faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samarasini namoyon etadi.

Tarmoq korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 551,4 trln so'mni tashkil etib, ularning o'sish sur'ati 106,2 foizga yetdi. Tahlillar ayrim strategik sanoat tarmoqlarida yuqori rivojlanish sur'atlari kuzatilayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJda ishlab chiqarish hajmi 141,4 foiz, "Navoiyuran" DKda 134,5 foiz, "O'zeltexsanoat" uyushmasida 118,0 foiz, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasida 117,8 foiz, Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi korxonalarida 117,0 foiz hamda "Olmaliq KMK" AJda 110,3 foiz o'sish sur'atlari qayd etildi [8]. Mazkur ko'rsatkichlar sanoatni texnologik yangilash, yuqori qayta ishlash darajasiga ega ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va innovatsion investitsiyalarni keng jalb etish siyosati izchil amalga oshirilayotganligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda o'sish sur'atlarining nisbatan pastligi yoki pasayish holatlari ham kuzatilmoqda. Xususan, "O'zmetkombinat" AJda ishlab chiqarish hajmi 87,8 foizni tashkil etib, bu tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, respublika sanoat tarmoqlari bo'yicha kuzatilayotgan ijobiy dinamikalar hududlarda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va sanoatni tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilish uchun qulay iqtisodiy muhit shakllanayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ushbu tendensiyalarni hududlar kesimida baholash mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini aniqlash hamda sanoat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, biz quyida Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining rivojlanish holati, investitsiya loyihalari hamda ularning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'siri batafsil tahlilini keltirdik (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida sanoat sohasini rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlili¹.

¹ Manba: rasmiy statistik ma'lumotlar va hududiy hisobot materiallari asosida muallif ishlanmasi.



Qashqadaryo viloyatida olib borgan monografik tadqiqotlarimiz natijalarini yuqoridagi rasmda mujassamlashtirdik. Xususan, sanoat mahsulotlari hajmi 2024-yildagi 39,1 trln soʻmdan 2025-yilda 47,8 trln soʻmga yetgan boʻlsa, tahlillarimiz 2026-yilda ushbu koʻrsatkichning 55,8 trln soʻmga yetishini koʻrsatmoqda. Mazkur dinamik oʻsish sanoat tarmogʻida ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, investitsiya faolligini oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijasini ifodalaydi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-96-son qaroriga koʻra, Qashqadaryo viloyatida 2026-yilda yuqori iqtisodiy oʻsishni taʼminlashning asosiy maqsadli koʻrsatkichlari etib yalpi hududiy mahsulot hajmining 8,2 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmining 8,6 foizga, bozor xizmatlari hajmining 15,9 foizga, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining 5,8 foizga va qurilishning 13,2 foizga oʻsishini taʼminlash belgilab berilgan [9].

Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hisobotlari asosida olib borgan tadqiqotlarimizga koʻra, 2026-yil uchun belgilangan maqsadli koʻrsatkichlar sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga yoʻnaltirilganligini namoyon etadi. Eng yuqori oʻsish surʼatlari mebelchilik (153,3 foiz), metallurgiya (141,2 foiz), qurilish materiallari (125,6 foiz), toʻqimachilik (122,3 foiz) hamda oziq-ovqat sanoati (120,9 foiz) tarmoqlarida prognoz qilingan. Togʻ-kon, neft-gaz va charm-poyabzal sanoati boʻyicha ham 108–110 foiz atrofidagi barqaror oʻsish surʼatlari belgilangan boʻlib, bu hudud sanoatining koʻp tarmoqli rivojlanish strategiyasiga amal qilinayotganligini tasdiqlaydi [10].

Viloyatda sanoat salohiyatini yanada oshirish maqsadida iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish va hisobga olish darajasini oshirish hisobiga 985 mlrd soʻmlik qoʻshimcha mahsulot ishlab chiqarish, 71 ta yangi loyiha negizida mikrosanoat markazlarini rivojlantirish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini 6 mlrd kVt-soatga yetkazish vazifalari belgilangan. Tahlil qilinayotgan loyihalar tarkibida mato, kiyim-kechak va gigiyena vositalari ishlab chiqarish majmuasi alohida iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu loyiha qiymati 120 mln AQSH dollarini tashkil etib, uni amalga oshirish natijasida 3 500 ta yangi ish oʻrni yaratilishi, 120 mln AQSH dollari miqdorida eksport amalga oshirilishi hamda 12 gektar maydonda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Loyiha 2026-yilda ishga tushirilishi koʻzda tutilgan boʻlib, u toʻqimachilik sanoatida yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish hamda eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, hududda qishloq xoʻjaligi texnikalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ilmiy-texnik markazni tashkil etish loyihasi ham strategik ahamiyatga ega. Loyiha qiymati 100 mln AQSH dollarini tashkil etib, uni amalga oshirish natijasida 600 ta yangi ish oʻrni yaratilishi, 3 ta zamonaviy ishlab chiqarish liniyasi ishga tushirilishi va 8 mln AQSH dollari miqdorida eksport mahsulotlari ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Hududning “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida rivojlanishini taʼminlash maqsadida elektr transport vositalari uchun quvvatlash (zaryadlash) stansiyalarini ishlab chiqarish loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Loyiha qiymati 8 mln AQSH dollari boʻlib, uning natijasida 200 ta yangi ish oʻrni yaratilishi va yiliga 500 ta zamonaviy zaryadlash stansiyasi ishlab chiqarilishi nazarda tutilgan. Qurilish sanoatini rivojlantirish yoʻnalishida esa fibrosementli panellar va dekorativ plitalar ishlab chiqarish loyihasi alohida eʼtiborga loyiqdir. Loyihaning umumiy qiymati 21,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, 180 ta yangi ish oʻrni yaratish hamda 140 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Keltirilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish hamda eksport salohiyatini mustahkamlash orqali mintaqaviy iqtisodiy oʻsishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Natijada hududning sanoat salohiyati va investitsion jozibadorligi ortib, barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam institutsional va ishlab chiqarish asoslari shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, mintaqaviy iqtisodiy oʻsishning barqarorligini taʼminlashda sanoat tarmoqlarini izchil rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati misolida amalga oshirilgan tahlillar hududda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, sanoat mahsulotlari turlarini kengaytirish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni koʻpaytirish mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari ekanligini tasdiqladi. Shu bilan birga, mavjud sanoat salohiyatidan toʻliq foydalanish uchun ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish, sanoat tarmoqlarini chuqur diversifikatsiya qilish, innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash va investitsion muhitni yanada takomillashtirish zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations Department of Economic and Social Affairs. World Economic Situation and Prospects as of mid-2026. New York: United Nations, 2026. <https://desapublications.un.org/publications/world-economic-situation-and-prospects-mid-2026>
2. Raximov, A. N. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 43–48. <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/68>
3. Xodjayeva, F. K. (2026). Sanoat tarmoqlarini optimal rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy-matematik model ishlab chiqish. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 6(05), 1–8. https://doi.org/10.55439/AFA/vol6_iss05/1383
4. Leontief, W. (1986). Input-Output Economics. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press.
5. Dantzig, G. B. (1963). Linear Programming and Extensions. Princeton: Princeton University Press.
6. Булавко, О. А., Иванкина, М. С., Туктарова, Л. Р., & Нурғалиева, Э. М. (2019). Основные аспекты развития промышленной политики. Вестник Самарского муниципального института управления, 2, 21–29.
7. Katana, B., & Gürsu, D. Industrial Sector in Regional Development. https://www.academia.edu/9649870/Industrial_Sector_in_Regional_Development
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi: 2025-yil yanvar–dekabr oylari bo'yicha press-reliz. Toshkent, 2026-yil 21-yanvar. <https://stat.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi PQ-96-son "Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-8087560>
10. Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hisobot materiallari. Qarshi, 2026. 102 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>